

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**YAXSHIBOYEVA GULBAHOR OYBEK QIZI**

**PARAMEDITSINA SOHASIDA RAQOBATBARDOSH  
MUTAXASSISLAR TAYYORLASH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA INGLIZ TILI O'QITISHNING METODIK  
ASOSLARI**

**13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

UDK 378.147:61:811.111(043.3)  
**pedagogika fanlari doktori (DSc)dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора педагогических наук  
(DSc) по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Pedagogy (DSc) on Pedagogical Sciences**

**Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi**

Parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ingliz tili o‘qitishning metodik asoslari.....3

**Яхшибоеева Гулбахор Ойбек кизи**

Методические основы обучения английскому языку в совершенствовании системы подготовки конкурентоспособных специалистов в области парамедицины..... 38

**Yakhshiboyeva Gulbahor Oybek qizi**

Methodological Foundations of Teaching English in Enhancing the System of Training Competitive Specialists in the Field of Paramedicine.....75

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....78

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**YAXSHIBOYEVA GULBAHOR OYBEK QIZI**

**PARAMEDITSINA SOHASIDA RAQOBATBARDOSH  
MUTAXASSISLAR TAYYORLASH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA INGLIZ TILI O'QITISHNING METODIK  
ASOSLARI**

**13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.2.PhD\Fil2563 raqami bilan ro'yxatgu olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi  
(www.adti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

**Isroilova Dildoraxon Muxtorovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc),  
professor

Rasmiy opponentlar:

**Dong Min Shin** – Janubiy Koreya,  
Koreya milliy transport universiteti,  
"Parameditsina" fakulteti dekani,  
professor

**Xakimov Abdulkakim**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Xoshimova Dildarxan Urinbayevna**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
kafedra professori, pedagogika fanlari doktori  
(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi  
DSc.04/08.05.2024.Tib.95.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil  
«27» dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov  
ko'chasi, 1-uy; Tel/faks: (+998) 74-223-94-50, e-mail: info@adti.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin  
(58 raqamli bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1-uy;  
Tel.: (+998) 74-223-94-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 15 » 12 kuni tarqatildi.  
(2025 yil « 13 » 12 dagi 12 raqamli reestr bayonini)  
*[Handwritten signatures]*



## **KIRISH (pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Mavzuning dolzarbliji va zarurati.** Globallashuv va integratsiyaning faol jarayonlari bilan uzviy bog‘lanib ketgan zamonaviy jamiyat rivojlanishi tibbiy oly ta’lim tizimiga ham ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ayniqsa, pandemiyadan so‘nggi davrda dunyo miqyosida parameditsina sohasining roli keskin ortib, tibbiyotning o‘rtta bo‘g‘in mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Mazkur tendensiyalar O‘zbekiston Respublikasi uchun ham bevosita ahamiyat kasb etib, paramedik kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan isloq qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tibbiyot sohasida yetishib chiqayotgan mutaxassislar raqobatbardoshligi, keng qamrovli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, imkon darajasida xorijiy mutaxassislar bilan teng doirada tushunishiga intilish shu soha rivojidagi eng muhim omil hisoblanadi. Hozirgi davrda yagona Boloniya islohotlari asosida Yevropa ta’lim tizimini shakllanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri talabaning erkin fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilgani ham bejiz emas. Yuqoridagi tizimdan kelib chiqib Yevropa hamjamiyatining dasturlariga muvofiq parameditsina sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning hamda tahsil olayotgan talabalarining akademik mobilligi keraklidir.

Jahon amaliyotida tibbiyot sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirish muhim talablardan biri hisoblanadi. Ingliz tili — nafaqat xalqaro tibbiy tajribani o‘rganish, balki kasbiy faoliyatni yuritish, zamonaviy tibbiy texnologiyalar bilan ishlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish va xalqaro miqyosda malaka oshirishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Parameditsina — favqulorra tibbiy yordam ko‘rsatish va hayot uchun xavfli holatlarda dastlabki tibbiy yordam berish bo‘yicha ixtisoslashgan tibbiyot sohasining muhum qismi sifatida dunyo sog‘liqni saqlash tizimida katta ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda ushbu sohada xalqaro miqyosda ilmiy-tadqiqot faoliyati kengayib, Jahon miqyosida paramediklarning malakasini baholash va sertifikatlashtirish uchun yagona standartlarni joriy etish, paramediklar tayyorlash tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar AQShda National Registry of Emergency Medical Technicians (NREMT) bilan birga Kanada, Avstraliya, Janubiy Koreya davlatlarida ishlab chiqilmoqda. Pandemiya va tabiiy ofatlar sharoitida paramediklar rolini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ham jahon miqyosida faol olib borilmoqda. Ular favqulorra vaziyatlarga tayyorlik, stressga chidamlilik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan metodologiyalarni taklif etadi. Shu bilan birga, telemeditsina va masofaviy tibbiy yordam tizimlari sohasida ham innovatsion yechimlar ishlanmoqda.

Respublikamizda tibbiyot sohasidagi muhim qatlam, parameditsinani rivojlantirish yo‘nalishida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Paramediklarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish uchun zamonaviy ta’lim dasturlari ishlab chiqilib amaliyo‘tga joriy etilmoqda. Tez tibbiy yordam xizmatlar sifatini oshirish maqsadida soha faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjalarni takomillashtirilmoqda. Jamoatchilik orasida tibbiy savodxonlikni

oshirish hamda profilaktik tadbirlarni tashkil etish orqali sog‘lijni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga e’tirof qaratilmoqda. Muxtaram Prezidentimiz<sup>1</sup> tomonidan “Shoshilinch tez tibbiy yordam xodimlar faoliyatini yana bir pog’onaga olib chiqish orqali aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish va sog‘lijni saqlash tizimini modernizatsiya qilish hamda tez tibbiy yordam xizmatlarini takomillashtirish, paramedik kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish bilan bir qatorda til ko‘nikmasini rivojlantirishga oid dasturlarni ishlab chiqish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori<sup>2</sup> – “Tibbiyot ta’limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda tibbiy ta’limda ingliz tilini chuqurlashtirib o‘qitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi PF-5590-sonli farmoni<sup>3</sup> – “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonda kasbiy yo‘naltirilgan xorijiy til o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Shunga ko‘ra, parameditsina ta’lim yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitishga metodik jihatdan yondashish, mavjud tajribalarni tahlil qilish va milliy ta’lim kontekstiga mos metodik asoslarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni<sup>4</sup> – “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da sog‘lijni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiy xizmat sifatini oshirish va kadrlar salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2022-yil 17-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida aholining sog‘lig‘ni mustahkamlash va sog‘lijni saqlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6669-sonli Farmoni<sup>5</sup> asosida sog‘lijni saqlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar belgilandi. Shulardan biri, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish tibbiyot sohasining rivojlanishiga va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga yordam berishdir. Shu asosda, ushbu tadqiqot ishining mavzusi — parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ingliz tili o‘qitishning metodik asoslarini ishlab chiqish — mamlakatimizdagi ta’lim va sog‘lijni saqlash tizimlari integratsiyasini ta’minlash, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati. (2024, 23-yanvar). Shoshilinch tibbiy yordam tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha yig‘ilish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/324>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-sonli qarori – “Tibbiyot ta’limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5084025>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi PF-5590-sonli farmoni – “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4101566>

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni – “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026 yillar” // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/5841074>

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-noyabrdagi PF-6669-sonli farmoni – “O‘zbekiston Respublikasida aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash va sog‘lijni saqlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” // Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6250363>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**

Parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ingliz tili o‘qitishning metodik asoslari bo‘yicha ko‘plab xorijiy ilmiy tadqiqotlar va xalqaro loyihalar amalga oshirilgan. Jumladan, University of Oxford (Buyuk Britaniya), Harvard Medical School (AQSH), University of Melbourne (Avstraliya), University of Toronto (Kanada), Freie Universität Berlin (Germaniya), Leiden University (Niderlandiya), Korean national transportation university (Janubiy Koreya), Jeju University (Janubiy Koreya), National University of Singapore (Singapur), Stanford University (Amerika qo‘shma shtatlari), Andijon davlat tibbiyot instituti (O‘zbekiston).

Dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar EMP talabalarining madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini sezilarli darajada oshirishga yordam bergenligini ko‘rsatmoqda. Xususan, interfaol o‘qitish metodlari, shu jumladan rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar va situatsion mashg‘ulotlar talabalar orasida tibbiy muhitdagi madaniy farqlarni tushunish va ularga moslashish qobiliyatini yaxshilagan (Johnson et al., 2021; Huang, 2018 Integrative Approaches to Developing Intercultural Communication Competence in Medical English Education.AQSh); Madaniyatlararo muloqotni o‘qitish muammolarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yutuqlarga erishilgan. Jumladan, talabalar bilimini o‘zaro nazorat qilish uchun – PEER modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatlar natijasida kompetentlikni baholashda qo‘llaniladi (O’Neill & Holmes, Durham University, United Kingdom, 2007); integrativ til va madaniyat ta’limi dasturlari talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirish bilan birga, ularning kasbiy ishonchini ham mustahkamlashga xizmat qilgan (Martinez & Schmidt, 2020, Garvard tibbiyot maktabi); IDI —madaniyatlararo kompetensiyani aniqlash va rivojlantirish darajasini baholaydi. U paramediklarning “denial” (inkor), “polarization” (qarama-qarshilik), “minimization” (kamaytirish), “acceptance” (qabul qilish) va “adaptation” (moslashuv) bosqichlaridagi joylashuvini aniqlaydi (Hammer et al., USA, 2003); madaniyatlararo muloqot bo‘yicha o‘qitish dasturlari talabalarni nafaqat til bilimlari, balki madaniyatga sezgirlik va empatiya kabi ijtimoiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishiga yordam beradi (Nguyen & Patel, 2021); CQS modeli metakognitiv, kognitiv, motivatsion va xulq-atvoriy (behavioral) komponentlardan iborat bo‘lib, turli madaniyatlarda samarali ishlash va muloqot qilish qobiliyatini baholaydi. EMP talabalarida ayniqsa klinik amaliyotlarda ushbu ko‘nikmalar alohida ahamiyatga ega CQS (Ang et al., 2007, Singapore). ODA "Uzbekistan - Establishment of Paramedicine and Mass Casualty Incident (MCI) Triage Education Program", akademik mobillik sharoitida paramediklarni ingliz tiliga bo‘lgan extiyojidan kelib chiqib, “Paramedicsina” yo‘nalishida qo‘shma

ta’lim dasturlarini ochish hamda ta’lim mazmunini ishlab chiqish, xalqaro andozalar asosida takomillashtirish davr talabi hisoblanmoqda. Parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda sohaviy ingliz tili o‘qitishning metodik asoslarni ishlab chiqish davom etmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xalqaro ilmiy hamjamiyatda ingliz tilini tibbiy sohada o‘rgatish masalasi keng tadqiq etilgan bo‘lib, bu sohada D. Douglas<sup>6</sup>, T. Hutchinson<sup>7</sup>, C. Candlin, M. Basturkmen<sup>8</sup>, J. Flowerdew<sup>9</sup> va H. Gatehouse<sup>10</sup> kabi olimlarning ishlari alohida o‘rin tutadi. Ularning tadqiqotlari ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘rgatish (ESP – English for Specific Purposes) bo‘yicha nazariy va metodik asoslarni shakllantirishda katta hissa qo‘sghan.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni kasbga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitish bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, G’.Jalolov<sup>11</sup> xorijiy tillarni kasbiy sohalarga mos holda o‘qitishning nazariy va metodologik asoslari hamda amaliy yo‘nalishlari batafsil tahlil qilgan, M.Tillaeva<sup>12</sup> til o‘rgatish jarayonida integrativ yondashuvlar, kommunikativ metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar va tajribalar o‘tkazgan, D.Isroilova<sup>13</sup> kasbiy til ta’limida kommunikativ metodlarni tatbiq qilish va ularning samaradorligini hamda madaniyatlararo muloqotni professional doirada muhim ekanligini tadqiq etgan, G.Abdullaeva, N.Norqulova, M. Yo‘ldosheva<sup>14</sup>lar xorijiy til ta’limining nazariy asoslari, kasbiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, milliy ta’lim tizimida integrativ metodlar qo‘llanilishi va uning zarurati yuzasidan ish olib borganlar, N.Turg‘unova<sup>15</sup> kasbga yo‘naltirilgan xorijiy tillarni o‘rgatish metodikasi, didaktik modellar va o‘quv jarayonini tashkil etish usullariga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan, Z.Yunusova<sup>16</sup> zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron ta’lim vositalari va interaktiv usullarni kasbiy tillarni o‘rgatishda qo‘llash yuzasidan tahliliy tajribalar olib borgan.

<sup>6</sup> Douglas, D. (2000). *Assessing Languages for Specific Purposes*. Cambridge University Press

<sup>7</sup> Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. Cambridge University Press

<sup>8</sup> Basturkmen, M. (2010). *Developing Courses in English for Specific Purposes*. Palgrave Macmillan

<sup>9</sup> Flowerdew, J., & Peacock, M. (2001). *Research Perspectives on English for Academic Purposes*. Cambridge University Press

<sup>10</sup> Gatehouse, H. (2001). *Key Issues in English for Specific Purposes (ESP) Curriculum Development*. The Internet TESL Journal, Vol. VII, No. 10.

<sup>11</sup> Jalolov, G‘. (2015). *Xorijiy tillarni kasbiy yo‘naltirilgan tarzda o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

<sup>12</sup> Tillaeva, M. (2018). *Til o‘rgatishda integrativ yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Fan va ta’lim.

<sup>13</sup> Isroilova, D. (2019). *Kasbiy til ta’limida kommunikativ metodlarning samaradorligi*. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

<sup>14</sup> Abdullaeva, G., Norqulova, N., Yo‘ldosheva, M. (2020). *Kasbiy yo‘nalishda xorijiy til ta’limi: nazariy va amaliy jihatlar*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

<sup>15</sup> Turg‘unova, N. (2019). *Kasbiy til ta’limi metodikasi: nazariy va amaliy masalalar*. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.

<sup>16</sup> Yunusova, Z. (2021). *Zamonaviy texnologiyalar yordamida xorijiy til o‘qitish*. Toshkent: Innovatsion ta’lim markazi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida A.E. Azizzonova va A.G. Jamaludinova<sup>17</sup> professional orientatsiyalangan ingliz tilini tibbiy yo'naliishdagi talabalariga o'qitish metodologiyasini tahlil qilgan; Rossiyada EALTHY (European Association Teachers of English in Health Higher Education)ni vakili hisoblangan Anna Olegovna Stebletsova<sup>18</sup> tibbiyot ta'limi va akademik ingliz tiliga ixtisoslashgan matn lingvistika, tibbiy diskurs va tarjimaga alohida e'tirof qaratgan va bundan tashqari ko'plab tilshunoslar tomonidan xorijiy til ta'limining nazariy asoslari, til o'rgatish metodikasi, integrativ yondashuvlar va o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Shu bilan birga, parameditsina sohasida ingliz tilini kasbiy yo'naliish asosida o'qitish, ayniqsa, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, akademik mobillik sharoitida paramediklarni nafaqat kasbiy xorijiy tilni rivojlantirish, balki xalqaro jahon sog'liqni saqlash, mehnat migratsiyasi talablariga javob beruvchi kadrlarni tayyorlashga oid tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bu esa mavzuning ilmiy jihatdan to'liq yoritilmaganligini ko'rsatadi va yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" loyihasining "Chet tillarni o'qitish metodikasining yangi yo'naliishlari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini ingliz tilini o'qitish metodikasini sohaviy amaliy ehtiyojlariga moslashtirish orqali takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

parameditsina sohasida ingliz tilini o'qitish metodikasi va amaliyotining mavjud holatlarini tahlil qilish;

kasbiy maqsadlarda ingliz tilini o'rgatish (ESP) konsepsiyasini tibbiyot yo'naliishiga (EMP) mosligini aniqlash;

parameditsina sohasida sohaviy ingliz tilini o'qitishdagi pedagogik va metodik muammolarni aniqlash;

parameditsina sohasida tahsil olayotgan talaba hamda mutaxassislarda sohaviy ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo kasbiy muloqotni rivojlantirish uchun metodik ta'minotni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

xorijiy hamda Respublikada mavjud zamonaviy pedagogik yondashuv va innovatsion texnologiyalar asosida parameditsina yo'naliishiga mos o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish;

<sup>17</sup> Azizzonova, A.E., Jamaludinova, A.G. (2022). *Methodological Foundations of Teaching Professionally Oriented English to Medical Students in the CIS Countries*. — Tibbiy til o'qitish metodikasi bo'yicha izlanishlar.

<sup>18</sup> Stebletsova, A.O. (2021). *Academic English in Medical Education: Linguistic and Discourse Approach*. Moskva: Rossiya Tibbiyot Universiteti nashriyoti. — Shuningdek qarang: European Association of Language Teachers for Healthcare (EALTHY) rasmii materiallari.

raqobatbardosh paramedik mutaxassislar tayyorlashda sohaviy ingliz tilini o'qitish, kasbiy madaniyatlararo muloqot sifatini oshirishga qaratilgan tavsiya modellarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan metodik yondashuvlarni amaliy sinovdan o'tkazish va samaradorlik darajasini baholash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Andijon davlat tibbiyot instituti, "Parameditsina" yo'nalishi, qo'shma ta'lif dasturi talabalari, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Termiz filiali, Farg'ona viloyati, tez tibbiy yordam markazi, parameditsina yo'nalishida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, Janubiy Koreya davlati, "Paramediklarni qayta tayyorlash" bosh boshqarmasi mutaxassislar, Andijon viloyati, Favqulotda vaziyatlar bosh boshqarmasi xodimlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash jarayoni, sohaviy ingliz tilini o'qitishning metodik tamoyillari mazmuni, shakli va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (kuzatish, anketa so'rovnoma, nazorat), prognostik (mustaqil baholash, umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik statistika (ma'lumotlarga statistik ishlov berish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullardan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Paramediklarning kundalik faoliyatida ishlatilinadigan maxsus "triage," "intubation," "CPR," "AED" kabi kasbiy terminlarni ketma-ketlik asosida to'rt bosqichdag'i bir xil ma'noni ifodalovchi turli so'zlar (sinonimlar), bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarga ega so'zlar (antonimlar), Flipped learning (teskari ta'lif texnologiyasi va gemifikatsiya yordamida amalga oshirish zarurati ilmiy asoslangan;

Akademik mobililik sharoitida tibbiyot sohasi vakillarini turli madaniyatdagi bemorlar bilan muloqot qilish, ularning o'ziga xos qadryatlari, urf-odatlari va e'tiqodlarini shifokor sifatida tushunishda "Tibbiyotda xorijiy til" fanining mazmuniga simulyatsion (Phet), mannequin-based simulators, virtual reality (VR) simulators, standardized patient simulators, task trainers va intekrativ metodlarini tadbiq etish orqali modeifikatsiyalashtirilgan;

Paramediklarning sohaviy ingliz tili (EMP) hamda madaniyatlararo kasbiy muloqot (intercultural professional communication skills) ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida zamonaviy til o'qitish metodologiyasining fanga yo'naltirilgan yondashuvlaridan biri bo'lgan Content and Language Integrated Learning (CLIL), shuningdek, aktiv ta'lif metodlari va kros-kultural o'rganish (Cross-Cultural Learning, CCL) konseptsiyalari asosida integratsion-didaktik, adaptive, kognitiv va akademik model ishlab chiqilgan;

Tadqiqot jarayonida parameditsina yo'nalishida faoliyat yuritayotgan talaba va mutaxassislar uchun ingliz tilidagi bilim, ko'nikma va kasbiy terminologik nutqini kompleks tahlil qilish, yaratilgan yondashuvda baholash faqat grammatik va leksik bilim darajasi bilan cheklanmay, balki lingvistik, pragmatik va madaniyatlararo kommunikativ o'qitishning kompetensiyaviy "A, B, C, D, E" mezonli baholash modeli takomillashtirilgan;

Fanlararo integratsiya, amaliy yondashuvlar, adaptiv ta’lim texnologiyalari, tahlil va manitoringlar asosida parameditsina yo‘nalishi talabalari, favqulotda vaziyatlar boshqarmasi va tez tibbiy yordam bo‘limi xodimlari bilan integratsiyalashgan hamkorlik (Collaborative learning) mexanizmi ilk marotaba mentorship yondashuvi (mentorship approach) hamda kasbiy hayotga moslashish (Cognitive Apprenticeship) strategiyalari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

parameditsina sohasida sohaviy ingliz tilini, terminlarni, tibbiyot xodimlarining verbal va noverbal muloqotga doir materiallarni qamrab olgan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun kasbiy mazmunga ega “English for medicine” nomli o‘quv qo‘llanma, kommunikativ topshiriqlar hamda interaktiv mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

parameditsina sohasida sohaviy ingliz tili faniga real klinik vaziyatlar asosida kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi simulyatsion va interaktiv o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishga doir metodik ishlanma amaliyotga tadbiq qilingan;

paramediklarning sohaviy til, kasbiy, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda bemor bilan ingliz tilida muloqot qilish (symptom inquiry (belgilarni so‘rash), giving instructions (yo‘riqnomalar berish), reassuring patients (tasalli berish), medical history elicitation (anamnez yig‘ish)), tibbiy hisobotni ingliz tilida yozish (Task based learning) ESP (kasbiy maqsadlar uchun ingliz tili) tamoyillari asosida xalqaro hamda tibbiy standartlarga moslangan baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

amaliy yondashuv asosida Janubiy Koreya “National Research Foundation of Korea” va Andijon davlat tibbiyot instituti o‘rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasi, ODA loyihasi doirasida “Yosh paramediklar” maxsus kursi tashkil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, unda muammoning aniq qo‘yilgani, chiqargan xulosalarning belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan aprobatsiyadan o‘tgan usullar asosida sistemali-strukturaviy, tasnifiy hamda tavsifiy metodlar orqali asoslangani, shuningdek, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro muvofiqligi bilan belgilanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun sohaviy ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish va yechimni sintetik yondashuvda asoslash, kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodik ko‘rsatmalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Talabalar o‘z fikrini aniq va asosli bayon eta olishi, kasbiy adabiyotlardan mustaqil foydalanishi, ilmiy tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishi, shuningdek, xalqaro va mahalliy mutaxassislar jamoasida samarali faoliyat yurita olish qobiliyatlarini rivojlantirishi bilan izohlanadi. Bularning barchasi zamonaviy ta’lim sharoitlariga hos moslashuvchanlikni ta’minlash, o‘quv jarayonida xalqaro

yondashuvlarni integratsiyalash va kasbiy til o‘rgatishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati** shundaki, sohaviy ingliz tilini o‘rgatishda qo‘llaniladigan innovatsion metodlar asosida kasbiy kompetensiyaga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi, reflektiv va fanlararo yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashqlar majmuasi taklif etilgan. Ushbu tizim Tuning Educational Structures in Europe (TUNING) dasturi doirasidagi internatsionalizatsiya va akademik mobillik mezonlariga muvofiq ravishda paramediklar o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni shakllantirishni ta’minlashga xizmat qiladi. Taklif etilgan metodik yechimlardan favqulotda vaziyatlar boshqarmasi, shoshilinch tibbiy yordam va sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar tayyorlashda, nafaqat parameditsina balki tibbiyotning boshqa yo‘nalishida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlar malakasini oshirish kurslarida, amaliy seminar va treninglarda hamda yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratishda samarali foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda ingliz tili o‘qitishning metodik asoslari mavzusi yuzasidan:

parameditsina sohasida mutaxassis tayyorlash jarayonida ingliz tilini samarali o‘qitish, nafaqat til kompetensiyasini shakllantirish, balki kasbiy faoliyatga tayyorlovchi tibbiy jarayonlarni dars jarayoniga tadbiq etish maqsadida “Foreign language in medicine” (Tibbiyotda xorijiy til) nomli o‘quv qo‘llanmasi nashr etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi, Andijon davlat tibbiyot institute rektorining 2024-yil 30-oktabrdagi, 01/08/2471-sh sonli ma’lumotnomasi). Natijada sohaviy matnlar bilan ishslash, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, til ko‘nikmalarini mustahkamlash maqsadida mashqlar tizimi bilan ishslash imkoniyatiga erilshildi;

ilk bor o‘quv qo‘llanma asosida paramediklarni raqobatbardosh, xalqaro talab darajasiga mos kadr yetishtirish uchun to‘rt tillik hamda tibbiy qisqartmalardan iborat elektron lug‘at ishlab chiqilgan (elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma O‘zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi 54154). Natijada bugungi kunda parameditsina sohasida tahsil olayotgan mutaxassislarni so‘z boyligini yanada oshirish, ingliz tilidagi sohaviy til ko‘nikmalarini takomillashtirish va nutq malakalarini rivojlantirishga erishilgan;

parameditsina sohasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish maqsadida, talabalarni sohaviy tanqidiy-tahliliy fikrlash qobiliyatini shakllantiruvchi matnlar bazasini qo‘llashga doir taklif va tavsiyalardan Andijon davlat tibbiyot institutida 2019-yildan buyon o‘z faoliyatini olib borayotgan “Pearls of valley” yozgi o‘quv maktabi ishtiroychilarini tibbiy ingliz tiliga o‘rgatishda foydalanilgan. (2025-yil 24 iyuldagi 01/06-3850-sonli ma’lumotnomasi). Natijada xalqaro toifadagi mutaxassislarni ingliz tilida simulyatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv jarayonlarini tashkil etishga xizmat qilgan;

parameditsina yo‘nalishida tahsil oluvchi talaba va faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni jahon standartlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash

tizimini takomillashtirish maqsadida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitishning metodologik asoslari va paramediklar uchun sohaviy ingliz tilini oson va tez o‘rganishga qaratilgan mashq va topshiriqlaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalni tomonidan tayyorlangan, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari” kabi turkum ko‘rsatuvlar va eshittirishlarning senariysini tayyorlashda (2023-2025 yillarda) foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O‘zbekiston 24» ijodiy birlashmasi, davlat muassasasining 21 iyul 2025 yildagi 05-09-1197-sonli ma’lumotnomasi) Natijada, Ingliz tilida yaratilgan interaktiv ta’lim resurslari (videodarslar, platformalar, simulyatorlar)dan samarali foydalanish imkoniyati yaratilib, Ingliz tilini qo’llash orqali ushbu sohavakillarini darsga o‘rgatishda ko‘proq kasbga qiziqtirish va yo‘naltirilgan metodlarni nazariy jarayonlarni amaliyatga bog‘lash yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va ularning ta’lim jarayonidagi afzallikkari bilan bog‘liq amaliy takliflar ommalashtirilgan;

“Parameditsina” yo‘nalishi qo’shma ta’lim dasturi talabalarini akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishning pedagogik, metodik va psixologik xususiyatlari haqidagi tahliliy qarashlar va nazariy xulosalaridan Andijon davlat tibbiyat instituti hamda Janubiy Koreya “National Research Foundation of Korea” nazorati ostida Koreya milliy transport universiteti, Parameditsina fakulteti bilan birgalikda olib borilgan "Uzbekistan - Establishment of Paramedicine and Mass Casualty Incident (MCI) Triage Education Program" loyihasining ta’lim jarayonida foydalanilgan. (Koreya milliy transport universitetining 10-fevral, 2025-yildagi ma’lumotnomasi). Natijada “Parameditsina” sohasi bilan bog‘liq mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar hamda istiqbollarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash hamda paramediklarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, zamonaviy talablar asosida parameditsina yo‘nalishini tashkil etish bo‘yicha o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta o‘quv qo’llanma, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta (xorijiy jurnallar 7 ta, Scopus jurnalida 1 tasi, WOS jurnalida 1 tasi, Respublika jurnallarida 12 ta) maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 263 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqotning ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqot ishining O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiliklar va tadqiqotning amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda kasbiy ingliz tilini parameditsina sohasida o'qitishning nazariy va ilmiy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida ilmiy adabiyotlarda “Akademik mobillik” sharoitida tibbiy maqsadlarda kasbiy ingliz tilini parameditsina sohasida o'qitishning nazariy va ilmiy asoslari keltirilgan. Ta'kidlash joizki, globallashuv va integratsiyaning faol jarayonlari bilan uzviy bog'lanib ketgan zamonaviy jamiyat rivojlanishi tibbiy oliy ta'lim tizimiga ham ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, bu esa o'z navbatida Oliy ta'lim tizimida yetishib chiqayotgan mutaxassislar raqobatbardoshligi, keng qamrovli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi, imkon darajasida xorijiy mutaxassislar bilan teng doirada tushunishiga intilish shu soha rivojidagi eng muhim omil hisoblanadi. Hozirgi davrda yagona Boloniya islohotlari asosida Yevropa ta'lim tizimini shakllanishining asosiy ustuvor yo'naliшlaridan biri talabaning erkin fikrlash doirasini rivojlantirishga qaratilgani ham bejiz emas. Yuqoridagi tizimdan kelib chiqib Yevropa hamjamiyatining dasturlariga muvofiq tibbiyat sohasida talabalarning ta'limda erkin harakatlanishi alohida e'tirofga sazovordir.

Balogniya tizimida akademik mobillik - talaba, tadqiqotchi yoki pedagogi uzoq, lekin cheklangan vaqtga (semestr, o'quv yili) mos keladigan o'quv yoki tadqiqot dasturiga ega bo'lgan boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazishdir. Akademik mobillik bir mamlakattdagi universitetlar o'rtasida ham, turli mamlakatlardagi universitetlar o'rtasida ham amalga oshiriladi, ammo stajirovkadan farqli o'laroq, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxs to'liq o'qish kursini oladi va asosiy qabul qilingan universitetga qaytib kelganidan so'ngra bu o'quv kursi tugallangan semestr yoki yil sifatida hisoblanadi<sup>19</sup>.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan andoza olgan holda sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish maqsadida barcha tibbiy oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillikning asosiy bandlaridan biri hisoblangan qo'shma ta'lim dasturi yo'naliшlari o'z faoliyatini olib bormoqda. Unga ko'ra ushbu yo'naliш talabalarini oliy ta'limni yakuniy bosqichlarida o'qishni davom ettirish maqsadida hamkor oliy ta'lim muassasalariga safarbar etilishi lozim. Bu talabalar oldiga bir vaqt ni o'zida ixtisosligi bo'yicha yuqori bilim darajada ekanligini namoyish etish bilan birga, chet tillarida so'zlasha olishi, kasbiy

---

<sup>19</sup> Rashidova, Z.N. (2021). *Akademik mobillikning ta'lim sifati va pedagogik mahoratga ta'siri*. Toshkent: Ilmiy nashriyot.

mahoratini dunyo miqyosida rivojlangan ekanligi ularning muvaffaqiyat kaliti ekanligini ko'rsatish kabi masalalarini ham qo'yadi.

Tibbiyat oliy ta'lif muassalarida akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o'rganish kasbiy tayyorgarlikda tanlangan yo'nalishi bo'yicha sifatli ta'lif olish imkoniyatini berish, bo'lajak mutaxassisiga dunyoning yetakchi soha egalari bilan erkin fikr almashish imkoniyatini beradi. Bu borada ingliz tili fani o'qituvchisining oldida turgan asosiy vazifalaridan biri bu tibbiyat sohasida tahsil olayotgan talabalarni kasbiy mavzularda nutq so'zlay olishga, bemorlar bilan erkin muloqatga kirishishga va sohaga oid adabiyotlarni o'qishga o'rgatishdir. Bobda shuningdek, tibbiyat sohasida akademik mobillikning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilindi.


Hozirgi kunda tibbiyat sohasidagi olib borilayotgan izlanish va yangiliklardan kelib chiqib, ilmiy fikrlar natijasi o'laroq, mehnat bozorida o'zgargan tanlov mezonlari "Tibbiyotda ingliz tili" fanini o'qitish mazmuni, jarayonida qo'llaniladigan shakllar, usullar va texnologiyalarga qo'yilgan talabni yangilash kerakligi isbotlandi. Global mehnat bozorida kundan-kunga oshib borayotgan ta'lif va takliflar, mehnat migratsiyasi va kadrlarni ish bilan ta'minlash sharoitida xorijiy tillarni bilish insonning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Til bilish insonga raqobatbardosh bo'lish, ish topish, ijtimoiy integratsiyalanish, turli jabhalardagi ma'lumotlarga ega bo'lish, xalqaro hamkorlik qilish, madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va global sohaviy muammolarni o'rganish davomida ularga tez yechim topish imkonini berishi aniqlandi.

Shuningdek, til bilish tibbiyat sohasida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Tilni bilish milliy tibbiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro toifadagi tibbiy salohiyatni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro maydonidagi obro'sini mustahkamlashga yordam beradi.

Hozirga kelib, O'zbekiston Respublikasida ham ta'lif tizimi rivojlangan Hindiston, Amerika, Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan akademik mobillik doirasidagi qo'shma ta'lif yo'nalishlaridagi mavjud o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga ahamiyat berilayotgan bir davrda qo'shma ta'lif dasturlari bor sohalarda ayrim qiyinchiliklar yuzaga chiqayotganligi, ya'ni aniq matematika, fizika kabi fanlarda o'quv dasturlarini namuna tarzda olish asosan oliy ta'lif muassasasida mavjud o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish muammo yaratsada, ijtimoiy gumanitar ingliz tili, falsafa fanlari kabi yo'nalishlardagi o'quv dasturlarini xalqarolashtirishda kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi bandlarga nisbatan milliy va diniy qadiriyat mezonlaridagi tafovutlar, ijtimoiy dunyoning mos kelmasligi hisobidan muammolarga duch kelishi kuzatilganligi yoritilindi. Umumiyligi muammolardan modernizatsiya qilishga qadar dunyoda rivojlangan davlatlarni tanlab olib ular bilan aloqa o'rnatish orqali oliy ta'lif muassasasini tanlash va shartnomalar tuzish davomidagi huquqiy qiyinchiliklar ham ko'plab OTMlarni mehnat faoliyatidagi tub burilishga sabab bo'ldi.

Dissertatsiya ishining ushbu bobida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida xorijiy tillarni, xususan, kasbiy yo‘nalishlar uchun mo‘ljallangan ingliz tilini (ESP) o‘qitishda xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni joriy etish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilayotganligi, shulardan biri — EnSPIRe-U (Enhancing Student Preparedness and Internationalization through Reform in English for University) loyihasi ham yoritilgan.


Mazkur loyiha doirasida ESP sohasini rivojlantirish uchun quyidagilar nazarda tutilgan:



Loyiha natijalari asosida ESP darslarini EMP (English for Medical Purposes) doirasiga tatbiq qilish imkoniyati ham shakllanmoqda. Bu esa tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda bosqichma-bosqich xalqarolashtirish modelini amaliyotga joriy qilishga zamin yaratadi.

Xorijiy tajribalar tahlilini o‘tkazadigan bo‘lsak, xalqaro miqyosda tibbiyot ta’limi tizimlarini xalqarolashtirish bo‘yicha ko‘plab muvaffaqiyatli misollar mavjud. Masalan, Germaniyada tibbiyot ta’limi institutlari akademik mobillikni rivojlantirish uchun qator dasturlarni ishlab chiqqan bo‘lib, ular nafaqat talabalar, balki professor-o‘qituvchilar almashinuvini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Rostok universiteti va Andijon davlat tibbiyot instituti o‘rtasidagi hamkorlik shunday muvaffaqiyatli misollardan biridir. Bundan tashqari 2022-yilda Andijon davlat tibbiyot instituti xorijiy universitetlar bilan akademik almashinuv bo‘yicha 15 ta memorandum imzoladi, bu esa talabalar va professor-o‘qituvchilar mobililigini 30% ga oshirdi.

Jahon mehnat migratsiyasi va kadrlarni ish bilan ta’minalash sharoitida til bilishning ahamiyati va globallashuv jarayonida buning muhimligini chuqrarroq tahlil qilib chiqaylik:



Akademik mobillik sharoitida tibbiyot oliygochlari dasturlarining xalqarolashuvi jarayonida xorijiy tajribalarga qo‘yilgan standartlar va talablarni ham moslashtirish zarur bo‘ladi:

- turli mamlakatlardagi ta’lim tizimlari: tibbiyot sohasidagi ta’lim tizimlari va standartlar mamlakatlar o‘rtasida farq qilishi mumkin. EMP dasturlarining xalqaro

talablarga mos kelishi va turli o'quv rejalariga moslashishi davomida muammo yaratadi. Misol tariqasida Yevropa davlatlarining ko'plab tibbiyot oliv ta'lim muassasalarining dastlabki bosqichlari amaliyot jarayonlariga urg'u beradi. O'zbekiston Respublikasida esa tibbiy ta'limning dastlabki bosqichlari fundamental ta'limga qaratilgandir.

- ilmiy va akademik qadriyatlardagi mutanosibliklar: O'zbekistonda tibbiy ta'lim jarayonidagi ilmiy va akademik qadriyatlar boshqa rivojlangan mamlakatlardan farq qilishi mumkin. Dasturlarni xalqarolashtirishda ushbu qadriyatlarga e'tibor qaratish davomida ushbu masalalar bilan hisoblashmaslik ham muammolarga yoki ishni sekinlashishiga sabab bo'ladi.

Bo'lajak paramediklarga ingliz tilini faqat kasbga yo'naltirilgan holda o'rgatish ularni jamiyatda faoliyat yuritishga qoniqarli tarzda tayyorlashga yetarli bo'lmaydi deb qarasak, shundan kelib chiqqan holda, paramedikalrغا ingliz tilini o'qitishda talaba almashinuvি rejalashtirilgan mamlakat haqidagi quyidagi mamlakatning shart-sharoitlari va davlat tuzumi, madaniyati, dunyo madaniyati bilan o'xshashlik va o'ziga xosligi, ta'lim va tibbiyot tizimi, xalq orasidagi an'analar va urflar, nutqiy muomila madaniyatiga qo'shimcha tarzda tibbiyot xodimi bilan aholi munosabatlari kabi ma'lumotlarni ham berish zarurati kelib chiqadi.

Masalaning ikkinchi muhim tomoni, ayrim hollarda shifokor va bemor o'rtasidagi tibbiyot tomonidan nozik masalalarni muhokama qilishga to'g'ri kelish holatlari. Bemorlarning shaxsiy hayoti va sog'liqni saqlashga oid nozik masalalarni muhokama qilishda, ularning madaniy xususiyatlarini e'tiborga olish kerak.

Akademik mobililik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitish uchun qiymat matritsasi mexanizmlarning izchilligi *qidirish - baholash - tanlash - proyeksiyalash*, shaxsning ta'lim, ilmiy va kasbiy qadriyatlarga ko'tarilishini ta'minlash kabi holatda ifodalanadi.

## 1.2.jadval

Tushuncha	Ta'rifi
<b>Qidiruv</b>	Shaxsning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish jarayoni, bu fan bilimlaridan kasalliklarning oldini olish, diagnostika qilish va davolash bo'yicha fundamental tibbiy-biologik va klinik bilimlarga o'tishni ta'minlaydi.
<b>Baholash</b>	Kasbiy yo'naltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligining subyektiv tajribasi; tibbiy tez yordam ko'rsatishni amalga oshirish uchun uning ahamiyatini aniqlash.
<b>Tanlov</b>	Talabaning o'z hayotining tashqi va ichki rejalarining o'zaro bog'liqligi, o'zini-o'zi boshqarishi.
<b>Proyeksiya</b>	Olingan kasbiy yo'naltirilgan ma'lumotlardan foydalanishda o'z xususiyatlari va holatlarini tashqi obyektlarga o'tkazish jarayoni va natijasi. Bu mexanizm nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, subyektning obyektga va boshqa subyektlarga nisbatan qimmatli munosabatini amalga oshiradi. Inson qadriyatlar olamida sayohat qilish uchun o'zi uchun eng muhimini tanlab, o'z kelajagini belgilangan qadriyatlarga muvofiq ravishda rejalashtiradi.

Ushbu model, kasbiy rivojlanish va tibbiy amaliyotda bilimlarni yig'ish, baholash, qaror qabul qilish va qo'llashning samarali jarayonlarini tasvirlaydi. Har bir bosqich o'zaro bog'langan va o'zgaruvchan tizimni tashkil etadi. Bu, nafaqat tibbiyotda, balki har qanday kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan o'rganish va qaror qabul qilish modelini yaratishga imkon beradi.

Shu sabali ham tibbiyot sohasida ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo kasbiy muloqotni rivojlantirish, bemorlarning turli madaniyatlardagi o‘ziga xos ehtiyojlarini tushunish, tilning madaniy xususiyatlarini bilish, nonverbal muloqot ko‘nikmalarini oshirish, madaniy o‘ziga xosliklarni tahlil qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bu esa, bemorlarga sifatli xizmat ko‘rsatish, tibbiyot xodimlari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlash va global tibbiyot jamoasi bilan samarali muloqot qilishga imkon yaratadi.

Yuqoridagi keltirilgan barcha ma’lumotlardan kelib chiqib, ingliz tilini o‘qitishda madaniyatlararo kasbiy muloqotni rivojlantirish qaysi soha vakili bo‘lishidan qat’iy nazar jahon mehnat bozorida mutaxassisga bo‘lgan talabni oshirishi aniqlangan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Integratsiyalashuv jarayonida tibbiyot terminologiyasini ingliz tili darslarida o‘qitishning xususiyatlari va qiyinchiliklari**”ga bag’ishlangan. Parameditsina sohasida kasbiy ingliz tili muloqotiga o‘qitishda terminologik yondashuv paramediklarni maxsus sohaga xos atamalar va iboralarni tushunish va qo‘llanishga o‘rgatadi, bu esa ularning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi. Paramediklarni kasbiy ingliz tili muloqotiga o‘qitishda terminologik yondashuv muhim ahamiyatga ega, chunki u talabalarni maxsus sohaga xos atamalarni tushunish va qo‘llashga o‘rgatadi.

Parameditsina sohasida kasbiy ingliz tili muloqotiga o‘qitish jarayonida tibbiy oliv ta’lim muassasalarida terminologik yondashuvning zamonaviy o‘quv sharoitlariga mos kelishi va zamonaviy davlat ta’lim standartlari talablariga javob beradigan eng samarali metodlarni amaliy mashg’ulot jarayonida to‘g‘ri tanlash muammosi ekanligi aniqlandi va integratsiyalashuv jarayonida tibbiyot terminologiyasini ingliz tili darslarida o‘qitishning xususiyatlari masalasi muhim deb qaraldi. Ko‘p tadqiqotlar muhokama, misollar, terminning ierarxik tuzilishi va boshqa qo‘srimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Dastlab tilshunoslar uchun tezkor ma’lumot vositasi sifatida bosh muharrir Eugene E.Loops va muharrirlar Susan Anderson, Dwight H.Day, Paul C.Jordan hamda J.Douglas Wingate tomonidan tuzilgan. Parameditsina sohasida kasbiy ingliz tili muloqotiga o‘qitishda terminologik yondashuvda dastlab tarjima metodidan foydalanish tavsiya etilgan edi va u yillar davomida asosiy o‘qitish usuli bo‘lib xizmat qilgan. Bu yo‘nalishda ta’lim jarayonini olib borish metodlar tarixi atoqli metodist professor I.V.Raxmanov<sup>20</sup> tomonidan asosiy prinsiplari quyidagilar etib ta’kidlangan:

1. Til o‘rganish yozma nutqqa asoslangan.
2. O‘rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo‘lgan.
3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so‘ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan.
4. Grammatik shakl va so‘zlarning ma’nosi so‘zma-so‘z tarjima vositasida ochib berilgan.

<sup>20</sup> Raxmanov, I.V. (2017). *Tarjima metodlari va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni*. Toshkent: Til va Ta’lim nashriyoti.

5. So‘zma-so‘z tarjima va quruq yodlash yo‘li bilan til materiali o‘zlashtirilgan.

6. So‘zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

Parameditsina sohasida kasbiy ingliz tili muloqotiga o‘rgatishda terminologik yondashuvning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- sohaviy terminlarni o‘rganish: O‘quv dasturida belgilangan mavzular yuzasidan tibbiyotga xos atamalar, iboralar, qisqartmalar va ularning og’zaki nutq jarayonida maxsus sohaviy lug‘atlar, o‘quv materiallar, simulyatsion jihozlar va videomateriallardan foydalangan holda sohaviy terminlarni o‘rgatilishi lozim. Maxsus lug‘atlar, o‘quv materiallari va videomateriallardan foydalanish ;

- terminlarning og’zaki matndagi ma’nosini tushuntirish: Terminlarning ma’nosini og’zaki nutq muhitiga qarab o‘zgarishi mumkinligini tushuntirish uchun turli dialoglarni tahlil qilish va amalda qo‘llash orqali misollar keltirish zaruriyat;

- terminlarni dars davomida o‘rganish usullari: tarqatma materiallasr, lug‘atlar, kichik va katta guruhlarda ishslash, dialoglarda qo‘llash orqali terminlarni o‘rganish imkoniyatlarini yaratish;

- amaliy jarayon: kasbga xos vaziyatlarni aks ettirgan sahnalarni o‘ynash, taqdimotlar tayyorlash va ularni namoyish etish, ma’lumotlarni tahlil qilish va hujjalarni to‘ldirish kabi mashqlar talabalarning ingliz tilidagi bilimini amaliyotga tatbiq etishga imkon beradi.

Van Ments ta’kidlaganidek<sup>21</sup> dars jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanish orqali isohaviy terminlarni o‘rgatish talabalarga terminlarni matndagi boshqa birikmalar bilan o‘zaro ta’sirini turli nuqtai nazarlarini o‘rganish imkoniyatini beradi. Shimoliy Karolina shtatida tadqiqotchi Hilari Flint, Mark Meyer, Monir Xossain va Melissa Klein<sup>22</sup> rolli o‘yin uslubining sohaviy til o‘rganishga ta’siri haqida tadqiqot olib bordi va 90% talabalar nutq mahoratini ushbu usul orqali oshirganligini isbotlaganligi, Bjork & Eschenbach, Frank, Rodriguez va Puyal, Roell, MBML yo‘riqnomasi asosida, dars jarayonida filmlardan foydalanish va pedagog faoliyati uchun so‘zlashuvnini integratsiyalash bosqichlari bilan talabalarning o‘quv jarayonini osonlashtirishga yordam berish borasida ko‘plab tadqiqotlari ham ilmiy ishning ushbu qismida keltirib o’tilgan.

Aynan parameditsina sohasida terminologik ko‘nikmalarni shakllantirishda quyidagicha bosqichlarga bo‘lib o‘rgatish biz tomonimizdan taklif etilgan:

1- bosqichda: parameditsina sohasida tahsil olayotga talabalarga asosiy anatomiya, fiziologiya, kasalliklar, davolash usullari, dori-darmonlarga oid bo’lgan tibbiy terminlarni ingliz tilida to’g’ri talaffuz qilish va yozishga o‘rgatish.

2- bosqichda: Paramediklarning kundalik ishlarida ishlatiladigan maxsus "triage," "intubation," "CPR," "AED" kabi kasbiy terminlarni o‘rgatish.

<sup>21</sup> Van Ments, M. (2010). *The Effective Use of Role-Play: Practical Techniques for Improving Communication Skills*. London: Kogan Page.


<sup>22</sup> Flint, H., Meyer, M., Hossain, M., & Klein, M. (2019). The Impact of Role-Play on Professional English Communication in Paramedicine. North Carolina Journal of Applied Linguistics, 8(1), 78-92.

3-bosqichda: Bu ularning lug'at boyligini oshiradi va turli vaziyatlarda to'g'ri so'zlardan foydalanishga yordam beradi.

4- bosqichda: Tibbiy terminlarni turli kontekstlarda (masalan, bemor bilan suhbat, shifokor bilan telefon orqali aloqa, hisobot yozish) ishlatalishni o'rgatish. Bir xil termin turli vaziyatlarda har xil ma'noga ega bo'lishi mumkin.

Parameditsina yo'nalishida tahlil oluvchi talabalarga terminlarni o'rgatish davomida quyidagicha o'qitish metodlaridan foydalanish mumkin:

Parameditsina sohasida kasbiy ingliz tili muloqotiga o'qitishda terminologik yondashuv va ko'nikmalarini integratsiyalashda quyidagicha o'qitish usullaridan foydalanish mumkin:



Akademik nutqni o'rganish o'qish kabi boshqa til kompitensiyalari bilan chambarchas bog'lanadi. Sababi o'qilgan o'rganilgan matnlar asosidagi mashqlar yig'indisi orqali talabalarda akademik nutq shakllanadi. Ammo akademik nutqiy malakani rivojlantirish jarayonida boshqa aspektlarga nisbatan juda ko'plab qiyinchiliklarni yengib o'tish borasidagi yechimlar ham ushbu bobda berilgan.

Parameditsina sohasida ingliz tili fani pedagoglari tibbiy atamalarni tushunarli tarzda o'rgatishi, ushbu sohada tahlil olayotgan talabalarni nafaqat bilim, balki muloqot ko'nikmalariga ham egallash imkonini yaratadi. Bu natijaga erishish yo'lida quyidagi ilmiy metodologiyalar muhim ahamiyatga ega:

1- Simulyatsiya tibbiy jihozlar asosida o'qitish: Parameditsina sohasida samimiyligi, real sharoitlarni yaratish orqali tibbiy xodimlarni o'qitishning samarali metodlari, jumladan, bemorlar bilan muloqotni simulyatsiya qilish usullari tibbiy ta'limni sifatli o'rgatishning muhim vositasidir.

2- Aktiv ta'lim metodlari: talabalarning faol ishtirokini ta'minlovchi metodlar, masalan, rol o'yinash (role-playing) va katta va kichik guruqli turli ko'rinishdagi mashqlar ushbu soha vakillari uchun tibbiy akademik muloqotni yanada samarali o'rgatishga yordam beradi.

Paramediklarga ingliz tilini tibbiy maqsadlarda o'rgatish kursining mazmuni quyidagi jihatlarni qamrab olishi mumkin:

-bemorlar va hamkasblar bilan og'zaki muloqot;

-kasbiy mavzularda yozma muloqot (tibbiy hujjatlarni to'ldirish, mutaxassislarga yo'llanmalar berish, hodisa haqida hisobot yozish, to'ldirish).

-tibbiyot mavzulari bo'yicha ilmiy matnlarni o'qish;

-konferentsiyalarda ma'ruzalar va taqdimotlar taqdim etish.

O‘quv jarayoni talabalarning tibbiy bilimlarini bilan bir qatorda, amaliy muloqot sharoitida ham til ko‘nikmalarini oshirish uchun tashkil etilishi kerak. Tibbiyotda ingliz tili quyidagicha bir qator xususiyatlarga ega:

- Tana tizimlarining mexanizmlari, funksiyalarini tavsiflashda oddiy (oldingi, hozirgi) davrlarining tarqalishi (Amalda barcha so‘rilish ingichka ichakda sodir bo‘ladi va qizilo‘ngachning yuqori qismi, til va yumshoq tanglayning hammasi chiziqli mushak to‘qimasini o‘z ichiga oladi), bemorning hozirgi shikoyatlar haqida ma’lumot to‘playdi va aniqlaydi. (Og‘riq qayerda paydo bo‘ladi? Og‘riq boshqa joyga tarqaladimi? Kechasi sizni bezovta qiladimi?), anamnezni to‘ldirish (Og‘riq qachon boshlangan? Birinchi marta huruj qachon boshlangan?). Og‘riqli holatning boshlanishini tasvirlash uchun Present Perfect talab qilinadi (siz ilgari ham shunday yo’talish xurujiga duch kelganmisiz? Sizning oilangizda bunday kasallik bo‘lganmi?);
- Majhul nisbatning qo‘llanilishi – paramediklar uchun faoliyati jarayonidagi barcha harakat baland ovozda aytishi muhimligi sababli ( Igna qo‘yiladi; bemorga birlamchi yordam ko‘rsatilinadi);
- Otlarning fe’llarga nisbatan ustunligi. Lotin va yunon tilidagi otlarning muhim qismi ko‘plik shakllanishining nostandard shakllariga ega (yadro-yadro, fastsiya-fasciae, vertebra-umurtqalar, bronx-bronxlar, silium-cilia).

Parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga ingliz tili o‘qitishda:

1. Tibbiy ingliz tilini o‘qitishda fanlararo bog‘liqlik yordamida talabalarga real hayotiy tibbiy vaziyatlarni tushunishga yordam beradi. Masalan, fiziologiya, anatomiya, psixologiya, biotexnologiya, favqulotda vaziyatda qutqaruva va boshqa sohalarning o‘zaro aloqalarini o‘rganish orqali, talabalar nafaqat ingliz tilini o‘rganadilar, balki ularni amaliy tibbiy kontekstda qo‘llash;

2. Fanlararo yondashuv, ingliz tilini o‘qitishda tibbiyotning turli sohalarini birlashtirish orqali, talabalarga tibbiy terminologiyaning chuqur tushunchasini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, anatomiya va fiziologiya fanlarini ingliz tilida o‘rgatish orqali talabalar tibbiy terminlarni o‘zlashtirish bilan birga, ilmiy tadqiqotlarni ham ona tilida, ham ingliz tilida tushunish va muhokama qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

3. Fanlararo yondashuv tibbiyot sohasidagi mutaxassislar uchun muhim bo‘lgan yangi ko‘nikmalarni, xususan, ilmiy munozaralar olib borish, tibbiy maqolalarni tahlil qilish va bemorlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish kabi 3 ta muhim tamoyili hisobga olingan.

Bugungi kunda ta’lim sohasidagi ahamiyati keng qamrovli tahlil qilinayotgan paramediklarni faqatgina tibbiy texnologik yoki ilmiy bilimlar bilan ta‘minlab qolmasdan, balki ularni sohaviy zarur bo‘lgan kreativ va innovatsion fikrlashga yo‘naltiruvchi STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi bilan bir qatorda tibbiy mavzularni ingliz tilida o‘tish orqali tilni va tibbiy bilimlarni bir vaqtida o‘zlashtirish imkonini beruvchi CLIL (Content and Language Integrated Learning) usuli ham samarali hisoblanadi. Shu sababli ham dissertatsiyaning ikkinchi bobida CLIL metodini tibbiyot sohasida ingliz tilini o‘rgatishda: til va sohaviy mazmunni birlashtirish, ko‘nikmalarni rivojlantirish, motivatsiya va qiziqish, kross-kultural o‘rganish, dars jarayonida innovatsion

yondashuvlar, til o‘rganishning kontekstual yondashuvi, kognitiv va akademik rivojlanish singari amalga oshirish strategiyalari ishlab chiqilgan.

Tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘rgatishda fanlararo bog‘liqlik va CLIL metodlarining ahamiyati aynan parameditsina soha vakillari uchun juda katta. CLIL metodlari parameditsina sohasi va yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tilini o‘rganishni faqatgina til o‘rganish jarayoni emas, balki amaliy, ijodiy va ilmiy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan kompleks jarayonga aylantiradi. Bu metodlar talabalarni faqat tibbiy atamalarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki ularni real hayotdagi sohaviy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlaydi, bu esa ularni xalqaro tibbiyot hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirishiga yordam beradi.

Bu metodlar talabalarni faqat tibbiy atamalarni o‘rganish bilan cheklanmay, balki ularni real hayotdagi sohaviy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlaydi, bu esa ularni xalqaro tibbiyot hamjamiyatiga muvaffaqiyatli kirishiga yordam beradi.

Dissertatsiyaning “**Parameditsina sohasida tibbiy maqsadlarda kasbiy ingliz tilini o‘qitishda simulyatsion ta’lim texnologiyalari**” deb nomlangan uchinchi bobida parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy ingliz tilini o‘qitish jarayonida simulyatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning lingvodidaktik, metodik va baholash mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. So‘nggi yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi davlat dasturlari ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonida zamonaviy bilimlarni yetkazish, shuningdek, talabalar bilim va ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, amaldagi davlat ta’lim dasturlari, ta’lim mazmuni va uslubiy adabiyotlarning tizimli o‘rganilishi va puxta tahlili ta’lim jarayonining samaradorligini baholash va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreya “National Research Foundation of Korea” va Andijon davlat tibbiyot instituti o‘rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasi doirasida ODA loyihasi tashkil etilgan. Ushbu loyiha ikki strategik davlat o‘rtasida “Parameditsina” sohasi bilan bog‘liq mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar hamda istiqbollarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish, tahlil qilish hamda sohaga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilgan. Amaliy natijalar jihatidan loyiha mamlakatimizda nisbatan yangi bo‘lgan “Parameditsina” sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, loyiha doirasida talabalar 3+1 xalqaro qo‘shma ta’lim dasturi asosida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lib, tegishli grantlar ajratilgan holda Koreya Respublikasida malaka oshirish orqali sohada yetuk va ilg‘or mutaxassislar etib yetishishlariga zamin yaratadi. 2023-2024 o‘quv yilida klassifikator kodi 60911300 bo‘yicha talabalar ilk bor qabul qilinib, ular uchun ingliz tili fanining o‘quv dasturlari hamda mazmunini tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

Ingliz tilini paramediklar uchun o‘qitishga ta’sir qiluvchi omillar quyidagicha:

1) Til siyosati: Turli mamlakatlardagi til siyosati ingliz tilining ta’lim jarayonidagi mavqeini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ba’zi davlatlarda ingliz tili rasmiy yoki davlat tili sifatida faol foydalaniladi, bu esa paramediklar

uchun ingliz tilini o'rganishni zaruratga aylantiradi. Aksincha, ayrim mamlakatlarda ingliz tili xorijiy til sifatida o'rgatiladi va uning amaliy qo'llanilish darajasi nisbatan past bo'lishi mumkin. Ingliz tiliga bo'lgan ehtiyoj darajasi ko'pincha paramediklarning xalqaro miqyosdagi hamkorlik faoliyati, tibbiy standartlarga muvofiqligi va sog'liqni saqlash tizimidagi global integratsiyaga tayyorlik darajasiga bog'liq bo'lib, bu ta'lim dasturlarining mazmuni va yo'nalishini belgilaydi.

2) Ta'lim tizimi: Paramediklar tayyorlov tizimi har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lib, bu ingliz tilini o'qitishning shakli va mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayrim davlatlarda paramediklar universitet darajasida tayyorlanadi, bu esa chuqurlashtirilgan til tayyorgarligini talab qiladi. Boshqa mamlakatlarda esa ta'lim maxsus kollejlar, litseylar yoki kasb-hunar o'quv yurtlari orqali amalga oshiriladi. O'qitish darajasi, akademik yuklama va kurs davomiyligi ham til o'rgatishning metodikasi va intensivligiga ta'sir etuvchi muhim omillardandir.

3) Resurslar va infratuzilma: Paramediklar uchun ingliz tilini samarali o'qitish ko'p jihatdan mavjud resurslar, texnologik ta'minot va o'qituvchilarining malaka darajasiga bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda bu borada zamonaviy o'quv materiallari, interaktiv texnologiyalar, multimedia vositalari va tajribali mutaxassislar mavjud bo'lsa, kam rivojlangan mamlakatlarda bunday imkoniyatlar cheklangan bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonining sifatiga, talabaning til kompetensiyasiga va yakuniy natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

4) O'qitish metodikasi: Ingliz tilini o'qitish uslublari ham mamlakatlar kesimida farqlanadi. Ba'zi ta'lim tizimlarida kommunikativ yondashuv asosida, ya'ni tilni amaliy muhitda qo'llashga yo'naltirilgan darslar ustuvor bo'lsa, boshqalarida an'anaviy grammatika tarjima uslubi saqlanib qolgan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (onlayn platarsmiyar, simulyatsiyalar, virtual laboratoriylar) darajasi ham sezilarli farq qilishi mumkin. Bu esa paramediklar tomonidan til ko'nikmalarining qanday shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi.

5) Tibbiy terminologiya: Paramediklar uchun ingliz tilida o'qitiladigan darslar ko'pincha kasbiy kommunikatsiya va tibbiy terminologiyaga asoslanadi. Shu sababli, til o'rgatishda tibbiy atamalar, abbreviaturalar va kasbga oid iboralarning mazmunan to'g'ri va aniq tushuntirilishi muhim ahamiyatga ega. Terminologik noaniqliklar nafaqat o'rganuvchining bilim darjasiga, balki kelgusida bemor bilan bo'ladigan muloqotning samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

6) Baholash tizimi: Talabalarning ingliz tili bo'yicha tayyorgarlik darajasini baholash usullari ham mamlakatlar kesimida turlicha shakllangan. Ba'zi tizimlarda standartlashtirilgan testlar (masalan, CEFR, IELTS) orqali nazorat qilinsa, boshqalarda amaliy topshiriqlar, og'zaki suhbatlar yoki vaziyatli simulyatsiyalar asosida baholash olib boriladi. Baholash mezonlari va yondashuvlar xilma-xilligi o'quv dasturlarining yakuniy samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi holatlarni o'rganish maqsadida Koreya milliy transport universiteti, "Xorijiy tillar" kafedrasi, ingliz tili, Dog'iston davlat tibbiyot

universiteti, “Lotin terminologiyasi va xorijiy tillar” kafedrasи “Tibbiyotda xorijiy til”, Al-Farobi nomidagi Qozog‘iston Milliy Universiteti, “Ingliz tili”, Andijon davlat tibbiyot instituti, “Hayot faoliyati xavfsizligi” fan dasturlari o‘rganib chiqilgan. O‘rganilgan va qo’shma ta’lim dasturi, paramediklar uchun “Ingliz tili” ning faqat nazariy asosda o‘qitilishi yetarli emasligi aniqlanib, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan darslarning muhimligi ta’kidlandi. Talabalarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ayniqsa, birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatishda muhim bo‘lgan mavzularni o‘z ichiga olgan o‘quv fani bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Natijada, o‘quv dasturining ikki bosqichli tuzilishi va ingliz tili o‘qitish metodikasining amaliy yo‘nalishga qaratilishi, parameditsina sohasida talabalar malakasini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda samarali vosita bo‘ldi. Kelajakda ushbu yondashuvni yanada kengaytirish, metodologik ishlanmalarni takomillashtirish va til mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlik qilish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2021–2022 o‘quv yiliga qadar “Tibbiyotda ingliz tili” fani uchun ajratilgan 180 soatlik ta’lim hajmi mazkur yondashuvning nisbatan samarali natija berishiga imkon yaratgan edi. Biroq 2022–2023 o‘quv yilidan boshlab bu fan uchun ajratilgan soatlar sonining keskin qisqargani natijasida talaba va pedagog o‘rtasidagi interaktiv ishlash imkoniyatlari sezilarli darajada kamaydi. Shu sababli, kasbiy ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy talablarni inobatga olgan holda, pedagog o‘z faoliyatida boshqa mutaxassislik fanlari dasturlarini doimiy tahlil qilish, mavjud o‘quv rejalarini asosida zarur tuzatish va moslashtirishlar kiritish orqali sohaga oid til ko‘nikmalarini samarali shakllantirishi muhim hisoblanadi.

Paramediklar uchun ingliz tilini o‘rgatishda taklif etilayotgan eng qulay CLIL metodi doirasida PhET Interactive Simulations platformasidan foydalanish ingliz tilini o‘qitish jarayonida innovatsion va integrativ yondashuv sifatida xizmat qilishi mumkin. To‘g‘ri, PhET dastlab fizika, kimyo, biologiya va matematika kabi tabiiy fanlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, uning interaktiv, vizual va tajriba asosidagi simulyatsiyalari tibbiyotga oid mavzularni o‘rganishda ham samarali til o‘rgatish vositasiga aylanishi mumkin deb qarash mumkin. Hozirgi kunda tavsiya etilayotgan ko‘plab PhET simulyatsiyalari ta’lim muassasalaridagi simulyatsion markazlar tomonidan amaliyotda samarali qo‘llanilmoqda. Xususan:

Parameditsina yo‘nalishida ingliz tilini o‘rganishda simulyatsiyalar bir necha jihatdan foydali bo‘lishi quyidagicha bosqichlarda asoslangan

- 1) Tibbiy terminologiyani o‘rganish Phet simulyatsiyasida ilmiy asoslanish turli fanlar doirasida amalga oshiriladi shu sabali talabalar anatomiya, fizologiya, farmakologiya kabi fanlardagi yangi atamalar va ularning ingliz tilidagi turli ko‘rinishlarini o‘rganishlari mumkin. Cardiovascular/Respiratory system.



2. Tinglash va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Simulyatsiyalar o‘z ichiga vaziyatlar va dialoglar kiritish orqali ingliz tilida tibbiy atamalarni qanday ishlatishini o‘rganish imkoniyatlarini beradi: tibbiy tarixni olish, tashxis qo‘yish, muolaja va davolash jarayonlarini tushuntirish



3. Amaliy jarayonlarni o‘rganish bunda bemor bilan muloqot qilibgina qolmasdan, tibbiyotdagi muhim jarayonlarni ham amalda (virtual) holda sinab ko‘rish imkoniyati beriladi: turli bog‘lamlar, operatsiyalar, diagnostik testlar.

Barcha holatdan kelib chiqib, paramediklar uchun dars jarayonida quyidagi kommunikativ yondashuv asosidagi mashqlarni tavsiya etilgan:

1. So‘z boyligi va terminologik jihatdan ishlash uchun matching – bu mashqlar orqali nafaqat sohaviy so‘z boyligini oshiradi, shu bilan birga ular ta’rifini ham o‘rganadi.

2. Flashcards yoki word wall activity – ushbu turdagি mashqlar talabalarga doimiy ravishda kam lekin samaraliligi bilan yodda saqlab qolishda yordam beradi.

3. Eshitish va gapirish ko‘nikmalarini oshirish uchun uyushtiruv sahna ko‘rinishlari yoki audio yozma qo‘l keladi. Ushbu turdagи mashqlar o‘zlashtirish darajasi turli xil bo‘lgan katta yoki kichik sonli guruh ham turli mashqlarda foydalanish nafaqat samarali, balki pedagog uchun yordam hamdir. Yuqoridagi jarayonga qisqa va keng doiradagi savol-javobni ham kirg‘izish mumkin.

4. Eshitish va yozish ko‘nikmani uzviy ravishda olib ketish uchun fill-in-the blanks ko‘rinishidagi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. Til bilish darajasi yuqori guruhlarda yoki yuqori kurslarda amaliy hamda nazariy bilimlarni birlashtirishda barcha ESP vakillari uchun qo‘l keluvchi Role-play va online tarzdagi (Prognosis: Your Diagnosis, Surgeon Simulator, Trauma Center Series, Two Point Hospital, EMT Rush) simulation mashqlarini qo‘llash mumkin. Ushbu online tarzdagi platrasmiyar nafaqat tibbiy salohiyatni balki, til ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

6. Har qanday tibbiyot hodimlari uchun kam doiradagi muammoli o‘qish va yozishga yo‘naltirilgan mashqlar jamlanmasi. Bizdan oldingi bajargan “Farmasevtikaga oid terminlarni o‘rgatishda o‘qish va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari (ingliz tili misolida)” ishimizda bu toifa mashqlar turiga chuqurroq yondashganmiz. Unga qo‘srimcha tarzda <https://www.englishmed.com> saytida paramediklarning ish jarayonidan bir qismi hisoblangan kunlik murojaatlar jamlanmasini kirgizish mumkin.

7. Yozish, ovqish kompotentsiyalaridan farqli ravish parameditsina hodimlar ish faoliyatini bir shakliga aylangan eshitish va gapirish til ko‘nikmalarini oshirish uchun samarali shu bilan birga zamon talablariga mos bo‘lgan, Simulation va Task-based learning metodlariga doir dars turli ko‘rinishdagi mashqlar albatta eng samarali mashqlar jamlanmasi hisoblanadi.

Andijon davlat tibbiyot institutida 2019-yildan buyon o‘z faliyatini olib borayotgan “Pearls of valley” yozgi tibbiy o‘quv maktabi loyihasi doirasida ishlab chiqilgan tizimli yondashuv asosida 0 dan 10 gacha bo‘lgan bosqichlarga bo‘lingan mavzular jamlanmasidan foydalanish, parameditsina sohasida ingliz tilini o‘rgatishda yuqori samaradorlikni ta’minlashi mumkin.

Bosqich	Mavzu	Tinglash faoliyati (Listening)	So‘zlashuv faoliyati (Speaking)
<b>Boshlang‘ich (Beginner)</b>	1. Salomlashish va o‘zini tanishtirish	Oddiy suhbat: Ismi, kasbi, qayerda ishlaydi	O‘zini tanishtirish, bemorga o‘zini tanishtirish (Hello, I’m your doctor...)
0-4 daraja hisobida	2. Kasb va ish joyi haqida	Ishxona haqidagi qisqa intervular	"Where do you work?" "I work at..."
	3. Tana a’zolari va og‘riqlar	Oddiy bemor-shifokor suhbatlari	"Where does it hurt?" "My head hurts."
	4. Kundalik ishlar (shift, medcard, injection)	Klinikadagi oddiy vazifalarni tushuntiruvchi audio	Ish tartibini tushuntirish: "I take blood pressure every morning."

### **Paramediklar uchun “Tibbiyotda ingliz tili” fanida simulyatsion ta’lim**

— bu hayotiy muhim, tezkor harakatlar va favqulodda holatlar boshqaruviga yo‘naltirilgan, real sharoitlarni taqlid qiluvchi mashqlar majmuasi<sup>23</sup>. Bu ularning kasbiy faoliyatida bevosita bemor hayotini saqlashga ta’sir qiladi.

**Boshqa tibbiyot xodimlari uchun simulyatsion ta’lim** — klinik amaliyot, jarrohlik, uzoq muddatli davolash jarayonlarida xatoliklarni kamaytirish va bemorning sifatlari parvarishini ta’minlashga qaratilgan. Quyida hozirgi kunda Andijon davlat tibbiyot institutida paramediklar uchun qo’llanishga tayyor modellar nomi va ular bu soha vakillarida boshqa yana mos keluvchi sohalar ham keltirib o’tkazilgan.

So‘nggi yillarda simulyatsion ta’limda virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalarining qo’llanilishi bu metodikaning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda

Simulyatsion metodning lingvovidaktik asoslari zamonaviy pedagogik konsepsiylar va til ta’limi nazariyalariga tayangan holda shakllanadi. Jumladan, bir necha olimlar tomonidan asoslangan kommunikativ til o‘qitish nazariyasi D. Hymes<sup>24</sup>, M. Canale & M. Swain<sup>25</sup>, W. Littlewood<sup>26</sup>, faoliyatga asoslangan yondashuv Task-based Learning, sotsiokultural nazariya L. S. Vygotskiy<sup>27</sup>, hamda konstruktivistik ta’lim nazariyalari J. Piaget<sup>28</sup>, J. Bruner<sup>29</sup> simulyatsion metodning ilmiy-nazariy poydevorini tashkil etadi. Lingvovidaktik yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgan texnologik metodlar ingliz tilini kasbiy kontekstda o‘rgatishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida paramediklar faoliyatida ingliz tiliga ehtiyoj seziladigan asosiy holatlar lingvovidaktik va kasbiy nuqtai nazardan bat afsil tahlil qilinadi.

23 Xalqaro Paramedicsina Ta’limi Assotsiatsiyasi (2020). Paramediklar uchun simulyatsion ta’lim: qo’llanma. Seoul: IHTA Nashriyoti, 45-bet.

24 Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Harmondsworth: Penguin.

25 Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.

26 Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press.

27 Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

28 Piaget, J. (1972). Psychology and Pedagogy. Viking Press.

29 Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.

- Xorijiy bemorlar bilan muloqot qilish zarurati: paramediklar tez tibbiy yordam ko'rsatish bosqichida bemor bilan bevosita muloqotga kirishadi. Xususan, turistik hududlar, xalqaro tadbirlar yoki migratsion oqim kuchli bo'lgan hududlarda xorijiy fuqarolarga xizmat ko'rsatish tez-tez uchraydi. Bunday vaziyatlarda bemor holatini to'g'ri aniqlash, simptomlarni so'rash, allergiya, dori vositalariga munosabat, ilgari o'tkazilgan operatsiyalar yoki surunkali kasalliklar haqida ma'lumot olish til orqali amalga oshiriladi. Ingliz tilida yetarli kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lmagan paramedik bemorning hayoti uchun muhim bo'lgan axborotni olishda qiyinchilikka duch keladi.

- Favqulodda holatlarda transmilliy hamkorlik: tabiiy ofatlar, avtohalokatlar, yong'inlar yoki epidemiologik holatlar yuzaga kelganida ko'p hollarda xalqaro tashkilotlar, chet ellik shifokorlar va qutqaruvchilar bilan hamkorlik qilish zarur bo'ladi. Bu kabi favqulodda vaziyatlarda samarali hamkorlik va koordinatsiya til vositasida amalga oshiriladi. Ingliz tilida bemalol so'zlasha oladigan paramediklar tezkor va aniq harakatlar orqali favqulodda holatni samarali boshqarishda muhim rol o'yndaydi.

- Tibbiy hujjatlar va xalqaro standartlar bilan ishlash: ko'plab tibbiy hujjatlar, tibbiy kartalar, epikrizlar, favqulodda yordam protokollari, hayotiy ko'rsatkichlar haqidagi hisobotlar ingliz tilida rasmiylashtiriladi yoki inglizcha terminologiyaga asoslanadi. Shuningdek, xalqaro akkreditatsiyalangan muassasalarda faoliyat yurituvchi paramediklar uchun ingliz tilida hujjat to'ldirish va ularni tushunish ko'nikmalari zarur hisoblanadi. Bu hujjatlar bemorning kasallik tarixini to'g'ri tahlil qilish va keyingi muolajalarni aniqlashda asosiy manba bo'lib xizmat qiluvchi mashqlar ham taklif etilgan.

- Kasbiy rivojlanish va ilmiy axborotlardan foydalanish: paramediklar o'z kasbiy malakalarini oshirish uchun xalqaro treninglar, onlayn kurslar, vebinarlar va konferensiyalarda ishtiroy etadilar. Ushbu tadbirlarning ko'pchiligi ingliz tilida olib boriladi. Shuningdek, sohadagi eng so'nggi yangiliklar, ilmiy maqolalar, tadqiqot natijalari ham ko'pincha ingliz tilida nashr qilinadi. Shunday ekan, ingliz tilini bilish - zamonaviy ilmiy bilimlarga kirish kalitidir.

- Xalqaro hamkorlik va tajriba almashuvi: tibbiy xodimlar, jumladan paramediklar, xorijiy mamlakatlardagi hamkasblari bilan tajriba almashish, qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida qatnashish, Erasmus+, WHO, USAID kabi xalqaro tashkilotlar bilan loyihalarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bunday hamkorlik muvaffaqiyatli kechishi uchun ishtiroychilarda yuqori darajadagi til kompetensiyasi bo'lishi talab etiladi.

- Tibbiy texnologiyalar va raqamli resurslar bilan ishlash: zamonaviy tibbiyotda qo'llanilayotgan uskunalar, dasturiy ta'minotlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar asosan ingliz tilida ishlab chiqiladi. Tibbiy texnologiyalarning to'g'ri ishlatilishi, texnik xatoliklarning oldini olish, bemorga to'g'ri yordam ko'rsatish ham ingliz tilini yaxshi bilishni talab qiladi.

Ushbu misollar orqali lingvodidaktik jarayonni zamonaviy talablar asosida tashkil etishning zarurligini ko'rsatadi. Parameditsina sohasida zamonaviy ta'lim tizimida baholash talabanining faqatgina bilimini emas, balki ularning amaliy ko'nikmalari, malakasi va til kompetensiyasini ham qamrab oluvchi jarayonga

aylangan. A, B, C, D, E mezonlari asosidagi baholash modeli Yevropa kredit tizimi (ECTS) asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, xalqaro tan olingan baholash usullaridan biri hisoblanib, ushbu model O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Tibbiyat xodimining kasbiy (tibbiy) bilimlarini baholash va tibbiyat kontekstidagi ingliz tilini bilish darajasini baholash o‘rtasidagi farqlar va o‘ziga xosliklarni tizimli tahlil qilish maqsadida quyidagi taqqoslovchi jadval asosida yondashuvlar ilmiy jihatdan yoritildi.

**Ikki baholash tizimidagi o‘xshashliklar quyidagicha:**

O‘xshash jihatlar	Izoh
Kompetensiyaga asoslangan baholash	Har ikkala holatda ham mahorat, ko‘nikma va bilim darjasini sinovdan o‘tkaziladi.
Real sharoitga yaqin holatlarda test	Simulyatsion holatlar, case study, scenario-based topshiriqlar keng qo‘llaniladi.
Strukturaviy yondashuv	Har ikki baholashda ham checklistlar yoki rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar asosida tekshiruv bo‘ladi.
Refleksiya va feedback muhimligi	Talaba yoki xodim o‘z faoliyatiga tahlil bera olishi kutiladi.

O‘xshashliklar bilan bir qatorda, tibbiy bilimlar va tibbiy ingliz tili ko‘nikmalarini baholash o‘rtasidagi farqlar ham to‘rt asosiy mezon doirasida tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Farq turi	Tibbiy bilim baholash	Tibbiy ingliz tili baholash
Maqsad	Klinik va amaliy ko‘nikmalarni aniqlash	Tibbiy kontekstda til kompetensiyasini aniqlash
Asoslangan fanni yo‘nalishi	Tibbiyat fani (fiziologiya, patofiziologiya, terapiya va b.)	Tilshunoslik va tibbiy ESP (English for Specific Purposes)
Baholash vositalari	OSCE, Case-based checklist, Simulyatsiya	OET, IELTS, ESP speaking/writing/listening tasks
Muloqot shakli	Bemorga yondashuv, kasbiy harakatlar	Lingvistik aniqlik, talaffuz, grammatik to‘g‘rilik, tibbiy terminlar
Yondashuv	Kasbiy klinik faoliyatga tayyorlash	Xalqaro tibbiy kommunikatsiyaga ko‘nikma shakllantirish

Ingliz tili jihatidan baholash me’zonlari yuqorida keltirilgan ballik tizimga amal qiladi lekin biz taklif etayorgan tizim ko‘proq CLIL, CEFR, Miller’s Pyramid baholash mezonlariga tayanadi.

Shunday qilib, A, B, C, D, E mezonlari asosida ishlab chiqilgan baholash modeli talabalarning bilim, malaka va til ko‘nikmalarini baholashda zamonaviy, shaffof va yuqori samaradorlikka ega vosita sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqot natijalari ushbu modelning nafaqat pedagogik jarayon sifatini sezilarli darajada oshirish, balki talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiyligi ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Kelgusida mazkur baholash modelini yanada takomillashtirish va uni raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali ta’lim jarayonining samaradorligi hamda sifatini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish imkoniyatlari mavjudligi istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘riladi.

Dissertatsiyaning “**Tibbiyat institutlarining parameditsina yo‘nalishi talabalarning ingliz tilini o‘qitish va kasbiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishning eksperimental tadqiqi**” nomli to‘rtinchchi bobo mazmunan parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy ingliz tilini

egallash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuvni o‘z ichiga oladi. Jumladan, ushbu bobda kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirish, madaniyatlararo kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, metodik tavsiyalarni tajriba-sinov asosida tekshirish, til kompetensiyasini baholash mezonlarini qo‘llash hamda yangi o‘quv materiallari – xususan, simulyatsion topshiriqlar va interaktiv mashqlarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash bosqichlari atroflicha yoritilgan. Mazkur eksperimental tadqiqotning asosiy maqsadi – parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarida ingliz tilidagi kasbiy (tibbiy) terminlarni o‘rganish samaradorligini baholashdan iborat bo‘lib, ayniqsa sohaviy matnlar asosida o‘qish va kasbiy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu ilmiy ishda ko‘rib chiqilayotgan masalaning dolzarbligi — ya’ni, parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar orasida madaniyatlararo kasbiy muloqot va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularning kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirish — tajriba-sinov ishlarni tashkil etishni zarur qiladi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi, chunki parameditsina yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar 3 yil davomida ingliz tilini chuqurlashtirilgan holda o‘rganadilar.

#### 1-Konstatatsion bosqich (2022–2023 yillar)

Ushbu bosqichda bir qator diagnostik tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan: Paramediklar va ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xodimlar o‘rtasida so‘rvnomalar o‘tkazildi;

Adabiyotlar tahlili bo‘yicha maxsus xorijiy adabiyotlar, normativ hujjatlar, amaldagi loyihalar va mavjud ushbu yo‘nalishga yaqin mutaxassislik o‘quv qo‘llanmalarining mazmuni chuqur tahlil qilindi;

Parameditsina yo‘nalishidagi talabalarga hamda ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritib kelayotgan FVV, tibbiy tez yordam bo‘limi xodimlariga xorijiy til asosida kasbiy muloqotga o‘rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha mavjud amaliy ingliz tili pedagoglari faoliyati o‘rganildi.

Shuningdek, ushbu yo‘nalish doirasida tashkil etilgan qo’shma ta’lim yo‘nalishida xorijiy hamkor OTM o‘quv rejalar, fanlarning ishchi dasturlari, o‘quv va kalendar rejalar, darsliklar hamda o‘quv-metodik materiallar atroflicha tahlil qilindi.

Bu yerda nafaqat amaliy ingliz tili faniga oid o‘quv-metodik komplekslar, balki “Favqulodda xatti-harakatlar va toksikologiya”, “Halokat boshqaruvi ”, “Sohaviy psixologiya”, “Tibbiy boshqaruv”, Muhim yordam simulyatsiyasi”“ kabi kasbiy fanlarning ham mazmuni ko‘rib chiqildi. Bu fanlarning madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga qanday bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib, talabalar va mutaxassislarni kasbiy xorijiy til va madaniyatlararo muloqotga o‘rgatish uchun o‘quv-metodik kompleksning tarkibiy qismlari va mazmuniy tuzilmasi ishlab chiqildi. Bunda fanlararo integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik tamoyiliga asoslanildi.

Shuningdek, madaniyatlararo va kasbiy muloqot kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan “Madaniyatlararo kasbiy muloqot” (Intercultural

professional communication) nomli tanlov fanining maxsus kursi ishlab chiqildi. Ushbu dastur ingliz tili o'rganish davomiyligi bilan bir xil asosda o'qitilishi uchun mo'ljallangan. Eksperiment davomida oliy ta'lif muassasalarining o'quv jarayoni o'z holicha saqlab qolindi, ya'ni hech qanday tashkiliy yoki mazmuniy o'zgarish kiritilmadi.

Tajriba-sinov ishlarining boshlang'ich bosqichida ilk marotaba faoliyat yuritayotgan yo'nalish bo'lganligi sababli uzviy bog'liq yo'nalishlardan (2021-yil, aprel-may oylarida) 5 ta turli xil yo'nalishda tanlab olingan parameditsina yo'nalishida tahsil olayotgan 116 nafar talaba, oliy hamshiralik ishida tahsil olayotgan 80 nafar talaba hamda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan 57 nafar mutaxassislar ishtirok etdi. Ular quyidagi OTMlardan va FVV, tez tibbiy yordam boshqarmalaridan jalb qilindi:

Andijon davlat tibbiyot instituti,

Janubiy Koreya milliy transport universiteti, parameditsina fakulteti,

Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi, Termiz filiali,

Andijon viloyati Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi,

Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi, Farg'on filiali.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshqa tibbiyot yo'nalishlarida tibbiyotda ingliz tili fani odatda faqat birinchi kursda o'qitiladi. Shu bois, eksperimentning keyingi bosqichi uchun (2022–2023 yillar, sentabr-oktyabr oylarida) davomida ingliz tili tanlov fan sifatida joriy etilib, pedagogik hamda matematik-statistik tahlillarni yakunlash uchun davom ettirildi.

Bundan tashqari, tajriba natijalarini chuqurlashtirish va taklif etilgan texnologiyalarni takomillashtirish maqsadida 2023-yilda ushbu yo'nalishga qabul qilingan qo'shimcha 75 nafar talaba eksperimentga jalb etildi.

Ushbu ma'lumotlar asosida maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilib, tanlov fanlari shakllantirildi. "Madaniyatlararo kasbiy muloqot" nomli maxsus fan orqali talabalarni real kasbiy vaziyatlarda til orqali muloqotga kirisha olishga tayyorlash maqsad qilindi. Shu bilan birga, fanlararo bog'liqlik va integratsiyalashgan metodik yondashuv asosida o'quv-metodik majmua tarkibi ishlab chiqildi.

Bosqich nomi	Mazmuni va mashqlar misollari
Terminologiya va so'z boylikni oshirish	Kasbiy atamalarni o'rganish, lug'at bilan ishslash, sinonimlar, antonimlar topish
Matnni tushunish va tahlil qilish	Klinik matnlarni o'qish, asosiy ma'lumotlarni aniqlash, savol-javoblar
Og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish	Role-play mashqlari, bemor bilan suhbat, diagnostika jarayonlarini taqdim etish
Yozma ko'nikmalarni shakllantirish	Hisobot yozish, kasallik tarixlar tayyorlash, qisqa ma'lumotnomalar yozish
Tibbiy matnlarni qayta ishslash	Murakkab matnlarni oddiylashtirish, tarjima mashqlari, asosiy g'oyalarni ajratish
Tanqidiy tahlil va axborotni baholash	Maqolalar tahlili, fakt va fikrlarni ajratish, ma'lumotlarni baholash
Madaniyataro muloqot va kasbiy qarash	Kasbiy etikani o'rganish, madaniyatga mos muloqot, qiyin vaziyatlarda strategiyalar

